



Bo'lajak o'qituvchilarni intellektual qobiliyatni rivojlantirishning texnologik asoslari

Polvonova Gulmira Rustamovna

Xalqaro innovatsion universitet, Pedagogika yo'nalishi 2 kurs magistr talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kasbiy-ijodiy faoliyat jarayonida bo'lajak o'qituvchining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyalar tahlil qilingan. Unda intellektual rivojlanish konsepsiyasi, texnologiyalarning o'quv jarayonidagi o'rni va ularning amaliy samaradorligi tadqiq etilgan. Maqola natijalari bo'lajak mutaxassislarning intellektual salohiyatini oshirishda zamonaviy yondashuvlarni qo'llashga oid ilmiy-uslubiy tavsiyalarni taklif etadi.

Kalit so'zlar: kasbiy-ijodiy faoliyat, intellektual qobiliyat, pedagogik texnologiyalar, ta'lim jarayoni, mutaxassis tayyorlash, innovatsiya, samaradorlik.

Abstract: This article analyzes innovative pedagogical technologies aimed at developing the intellectual abilities of future teachers in the process of professional and creative activity. It examines the concept of intellectual development, the role of technologies in the educational process, and their practical effectiveness. The results of the article offer scientific and methodological recommendations for the use of modern approaches to increasing the intellectual potential of future specialists.

Keywords: professional and creative activity, intellectual abilities, pedagogical technologies, educational process, specialist training, innovation, efficiency.

Kasbiy-ijodiy faoliyat jarayonida bo'lajak o'qituvchining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish, ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va muammolarni hal etish ko'nikmalarini shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni qo'llash kelajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarining oshirishning asosi sifatida qaraladi.

Hozirgi bosqichda umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari yetuk shaxslarni tarbiyalash va barkamol avlodni yetishtirishda muhim ahamiyatga ega bo'g'in sanaladi. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari ma'naviy ishlab chiqarish sohasi bo'lib, uning mahsuli



nafaqat yangi bilimlarni, yangi maqsadlarni, yangi qadriyatlarni va shaxsiy ma'nolarni egallash, balki o'qituvchining muhim kuchlarini ochib berish va rivojlantirishdir, uning intellektual, axloqiy va ijodiy salohiyatini ko'rsatib berishdan iborat. Ijodiy salohiyat - bu shaxsning o'zini o'zi anglashga yo'nalishini, tayyorligini va qobiliyatini belgilaydigan ijodiy faoliyatning zaruriy sharti va natijasi bo'lgan shaxsning dinamik, integrallangan xususiyati sanaladi

Zamonaviy ilm-fan asosida insonning mavjudot sifatida tushunchasi yotadi. Insonning dunyoning transformatori, yangi munosabatlarni yaratuvchisi va o'zi sifatida mohiyati aynan ijodiy faoliyatda namoyon bo'ladi. Ijodkorlik elementlari insonning har qanday faoliyatida mavjud bo'lganligi sababli, odamlarning ijodkorligi nima uchun juda xilma-xil va ko'p qirrali ekanligini va nima uchun, ijodiy muammo qayerda paydo bo'lishidan va kim tomonidan hal qilinishidan qat'iy nazar - olim yoki o'qituvchining turli faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Ijodiy faoliyatning universal namoyon bo'lishi haqidagi fikrlar ko'plab tadqiqotchilarning asarlarida mavjud.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda asosiy rol ni uning kasbiy faoliyati va o'zini takomillashtirish istagi egallaydi. Qobiliyatlarning rivojlanishi har bir o'qituvchichi egallashi kerak bo'lgan pedagogik mahorat va qobiliyatlarga bevosita bog'liqdir.

Ma'lumki, aslida pedagogik faoliyat tabiatan ijodiy xususiyatga ega. O'qituvchi faoliyatida kasbiy mahorat va ijodkorlik o'rtasidagi bog'liqlik qanday? Ehtimol, bu tushunchalar umuman sinonimdir? Ijodkorlik odatda jarayon sifatida tavsiflanadi, uning natijasi yangi moddiy yoki ma'naviy qadriyatlarni yaratishdir. Yangilik mezoni ob'ektiv tarkibga (ma'lum bir bilim sohasi uchun yangi) va sub'ektivlikga (shaxs uchun yangi -faoliyat sub'ektiga) ega bo'lishi mumkin. Agar fikrlash jarayonida ijod ustunlik qilsa, u holda u o'zini tasavvur sifatida namoyon qiladi (K.K.Platonov). O'qituvchining kasbiy mahorati ijodkorlik bilan chambarchas bog'liqdir. Biroq, bu tushunchalar sinonim emas: kasbiy vakolatli harakatlar o'qituvchining ining ijodkorligi natijasi bo'lishi shart emas.

Mazkur maqola kasbiy-ijodiy faoliyat jarayonida intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishning texnologiyalari va ularning asosiy tamoyillari va ta'lim jarayonidagi ahamiyatini tahlil qilishga bag'ishlangan.

1. Intellektual qobiliyatni rivojlantirishning texnologik asoslari

Intellektual qobiliyatni rivojlantirish texnologiyalari o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, kreativ yondashuv va analitik ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu texnologiyalar ta'lim jarayonini yanada interaktiv va samarali qilish uchun mo'ljallangan.



Muammoli ta'lim: Bu usul o'quvchilarda mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'qituvchi o'quvchilarga yechim talab qiladigan vaziyatlarni taqdim etadi va ular mustaqil yechim topadilar.

Kritik fikrlash texnologiyalari: Ushbu texnologiyalar o'quvchilarning har bir masalaga tanqidiy yondashishini ta'minlaydi. Bu orqali o'quvchilar o'z fikrlarini shakllantirish va ularni asoslash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kasbiy-ijodiy faoliyatda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishning samaradorligi zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishiga bog'liq. Innovatsion yondashuvlar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini kengaytirib, ularning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlaydi.

Loyihaviy ta'lim metodikasi: O'quvchilar real muammolarni hal qilish uchun ijodiy loyihalar ustida ishlashadi. Bu usul ularning amaliy ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalar: Virtual laboratoriyalar, interaktiv taxtalar va boshqa zamonaviy vositalar o'quvchilarning intellektual rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda bo'lajak pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mav-jud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potensialini yanada rivojlantiradi. Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllanadi. Zamonaviy ta'lim barcha turdagi ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchi, pedagoglarning ijodkor bo'lishlarini taqozo etmoqda.

Pedagog-o'qituvchi o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakl lantiriladi



va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak peda goglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda peda gogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Ijodkorlik - muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi. Ijodkor shaxs - ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs. Kreativ shaxs - jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni yechishga nostandart usullar bilan yondasha olishga moyil, o'ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs.

Ijod - ijtimoiy subyektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi. Ijodkor shaxsni tarbiyalash – kasbiy-ijodiy faoliyat tajribalarini qaror toptirish va boyitish asosida ijodiy g'oya, ularni amalga oshirish ko'nikma va malakalariga ega shaxsni shakllantirish va rivojlantirish.

Kasbiy-ijodiy faoliyat–mutaxassisning kasbiy masa lalarni ijodiy hal qilish muvaffaqiyatini tavsiflovchi faoliyati, innovatsion xatti-harakati. Ijodiy topshiriqlar– muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil asosida hal qilishga yo'naltirilgan masalalar tizimi. Kasbiy-ijodiy imkoniyat.

1. Kasbiy kompetensiya, malakaga egalik;
2. Kasbiy ijod metodologiyasi asoslarini o'zlashtirganlik;
3. Jodiy tafakkurning shakllanganlik darajasi;
4. Kasbiy-ijodiy layoqat va shaxsiy sifatlarning rivoj langanligi.

Kasbiy ijodkorlik metodologiyasi - ijodkorlikning jarayon va natija sifatida obyektlar hamda muayyan kasbiy faoliyat turlariga munosabat ko'rinishidagi tuzilishi, O'qituvchining kasbiy kompetenti va mahorati 63 mantiqiy tashkil etilishi, metod va vositalari haqidagi ta'limot. Ijodiy tafakkur – tafakkurning ijod jarayonini tashkil etish va ijod natijalari (mahsullari)ni bashoratlashni ifo dalovchi turi. Ijodiy qobiliyat – ijodiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish va uning natijalanganligini baholashda namoyon bo'ladigan individual xususiyati. O'zini o'zi ijodiy faollashtirish – shaxsning ijodiy faoliyatda o'z imkoniyatlarini to'laqonli namoyon qili shi va rivojlantirishining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki



mashg'ulotlarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur. Mashg'ulotlarda "kreativlik yo'l xaritasi"ga ko'ra quyidagi 4 ta yo'nalish bo'yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglar ning kreativligini ifodalovchi belgilar (Patti Drapeau) sanaladi: 1) ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish; 2) mashg'ulotlarni qiziqish bilan o'zlashtirishga rag' batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish; 3) innovatsion yondashuv va pedagogik masalalarning yechimini topishga kreativ yondashish; 4) kutiladigan natija.

Xulosa. Kasbiy-ijodiy faoliyat jarayonida bo'lajak o'qituvchining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari shaxsiy yondashuv, innovatsion usullar va zamonaviy vositalarni o'z ichiga oladi. Bu jarayon kelajak pedagoglarining nafaqat bilim va ko'nikmalarini, balki ijodiy salohiyatini ham kengaytiradi. Shunday qilib, intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalar ta'lim sifatini oshirish bilan birga, ta'lim jarayonini yanada samarali qilishga xizmat qiladi. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida o'qituvchiining kasbiy faoliyati va uning ijodkorlikgi muhim ahamiyatga ega. Har bir o'qituvchi o'zining ijodiy fikrlashi va faoliyati oraqali bolalarning rivojlanishiga ma'lum darajada o'z hissasini qo'shadi. Shunday qilib ijodkorlik o'qituvchining muhim sifatlaridan biridir. Har bir darsga kirishdan oldin o'qituvchi ma'lum darajada ijodiy izlanishlar olib borishi uning kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatini ta'minlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduvahobov U. Shaxs (Komil inson haqida). – T.: Vatan, 1996. – 20 b.
2. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik /Asqar Mahkam tarjimasi. – T.: Sharq NMAK, 2001. – 400 b.
3. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992. – 160 b.
4. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. fan. dokt. ... yozilgan diss. avtoref. – T.: 2003. – 44 b.
5. Azizxo'jaeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000. – 52 b.